

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLARNI KO'RIB CHIQISH FAOLIYATI

Bobajonov Miraziz Muyassar o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi

311-guruh kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Profilaktika inspektorlarining ma'muriy huquqnuzarkiklarni yuritish faoliyatida yuzaga keldigan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora tadbirlar va ko'rsatmalar yoritib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье описаны меры и указания, направленные на устранение проблем и недостатков, возникших в деятельности инспекторов-профилактиков при проведении административной правоприменительной деятельности.

Annotation: This article describes measures and instructions aimed at eliminating the problems and deficiencies that have arisen in the activities of preventive inspectors in conducting administrative law enforcement activities.

Bugun Profilaktika Inspektorlari tomonidan ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda bir qancha kamchiliklar va muamolar vujudga kelmoqda. Ma'muriy huquqbazarliklarni ko'rib chiqish jarayonida eng avvali Konstitutsiya hamda O'zbekiston Respublikasi Qonunlari Prizident farmon va qarorlari hamda bevosita Ichki Ishlar Vazirligi normativ huquqiy hujjatlariga amal qilgan holda har qanday huquqbazarlikni qonuniy hamda adolat bilan ko'rib chiqishi talab etadi. Ma'muriy huquqbazarliklarni qonuniy va adolatli ko'rib chiqishi bu eng avvalo bugungi kunda mamlakatimizda "Inson qadri uchun" tamoyilini taminlashni eng katta yo'li hisoblandi.

Bevosita ma'muriy ishlarni yuritish jarayonida ma'muriy ish nimaligiga to'xtalinib o'tilishi kerak. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekisini 6-moddasida bevosita to'liq ta'rifi ko'rsatilinib o'tilgan, unga ko'ra:

Mamuriy ish –Ma'muriy ish ishida ishtirok etuvchi shaxslar va ma'muriy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tomonidan sudga taqdim etilgan yoxud sud tomonidan talab qilib olingan hujjatlar shuningdek qog'ozda rasmiylashtirilgan sud hujjatlari va boshqa hujjatlar asosida shakillantiriladi.

Buggingi kunda O'zbekistonda ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning soddalashtirilgan tartibi joriy etiladi. Hozirgi rivojlanib borayotgan Axborot-Kommunikatsiya texnologiyalari zamonida tizimga bir qancha yangiliklar joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prizidentining "Raqamli O'zbekiston-2023 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"

2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son hamda “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarni ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida” 2020-yil 24-noyabrdagi PF-6118-son farmonlari, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prizidentining “Sud hokimiysi organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2020-yil 3-sentabrdagi PQ-4818-son qarori ijrosini ta’minalash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 09.07.2021-yildagi 431-tonli “Ma’muriy huquqbazarliklar to’g’risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo’yicha qo’shimcha chora tadbirlar haqida” qarori asosida tizimga “E-ma’muriy ish” dasturi joriy etildi. Yuqoridagi qarorda bir qancha tushunchalarga sharh berib o’tilgan, ular quydagicha:

“E ma’muriy ish” tizimi — huquqbazarlik sodir etilgan holat yuzasidan ma’muriy ish hujjatlarini elektron tarzda rasmiylashtirish va shakllantirish, vakolatli organga elektron yuborish hamda huquqbazarlik sodir etgan shaxs (keyingi o’rinlarda — huquqbazar), jabrlanuvchi, guvoh va xolislar to’g’risidagi ma’lumotlarni toplash, umumlashtirish, saqlash, tahlil qilish, shuningdek, vakolatli organlar o’rtasida idoralararo axborot almashishning yagona markazlashtirilga elektron tizm.

Mamuriy ish — Ma’muriy ish ishida ishtirok etuvchi shaxslar va ma’muriy sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tomonidan sudga taqdim etilgan yoxud sud tomonidan talab qilib olingan hujjatlar shuningdek qog’ozda rasmiylashtirilgan sud hujjatlari va boshqa hujjatlar asosida shakillantiriladi. “E-ma’muriy ish” elektron dasturi ishlab chiqilganidan so’ng, fuqorolarning IIO idoralariga murojaat qilishini va profilaktika inspektorlarini ish faoliyatida murojaatlarni ko’rinb chiqish va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirishga yetarli darajada vaqt paydo bo’ldi. Bundan tashqari Profilaktika inspektorlarini ortiqcha qog’ozbozlik bilan ovora bo’lishini oldi olindi.

Buni inobatga olgan holda O’zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi tomonidan quyidagilarni yuqoridagi kamchilik va tshunmovchiliklarni nazarda tutuvchi “E- ma’muriy ish” axborot tizimini joriy etish loyihasi doirasida ma’muriy huquqbazarlik to’g’risidagi ishlarni yuritish tartibini bosqichma-bosqich raqamlashtirish to’g’risidagi taklifi qabul qilinishi mumkin. Ma’muriy huquqbazarlik to’g’risidagi ish yurituvni elektron shaklda yuritish va protsessual harakatlarni amalga oshirish vaqtida ma’muriy huquqbazarlik to’g’risidagi bayonnomaga tuzishga vakolatli organlar, sudlar va Majburiy ijro byurosi, shuningdek, boshqa tashkilotlar bilan ma’lumotlar almashinushi imkonini beruvchi himoyalangan tizimni, jumladan axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarini integratsiya qilish, ma’muriy huquqbazarlik to’g’risidagi ishlar bo’yicha statistika yuritishni avtomatlashtirish orqali joriy qilish.

Ma’muriy huquqbazarlik to’g’risidagi ish yurituv amaliyotida protsessual hujjatlarning yagona elektron shakllarini ishlab chiqish; Ma’muriy huquqbazarlik to’g’risidagi ish yuritish jarayonlarini, jumladan bu turdagi ishlar

bo'yicha elektron ish yurituvda tartib-taomillarni qisqartirish va ortiqcha bosqichlarni chiqarib tashlash orqali optimallashtirish;

Protsessual harakatlarni amalga oshirish tartiblarini, jumladan elektron shaklda dalillarni to'plash, ekspertizalar, sud muhokamasi o'tkazish va sud qarorlarini ijro etish orqali soddalashtirish.

"Elektron ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish" loyihasini amaliyatga joriy qilish bo'yicha idoralararo komissiya tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Idoralararo komissiyaning ishchi organi etib belgilanadi. "Elektron ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish" dastlabki loyihasini amalga oshirish bo'yicha ish rejasini hamda idoralararo komissiya o'rtaqidagi ish taqsimotini tasdiqlaydi.

2021 yil 1 yanvarga qadar Toshkent shahrida dastlabki loyiha amalga kiritiladi. 2021 yil 1 iyunga qadar dastlabki loyihaning sinovlari natijalaridan kelib chiqib, ma'muriy huquqbazarlikka oid ishlarni yuritishning soddalashtirilgan tartibi joriy qilinishi munosabati bilan ma'muriy huquqbazarlikka oid qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi. Shunday tartib o'rnatiladiki, unga muvofiq Toshkent shahri hududida 2021 yil 1 yanvardan boshlab vakolatli mansabdor shaxs huquqbazarlikni aniqlashi bilan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni rasmiylashtirish va ko'rib chiqish uchun elektron tizim o'rnatilgan planshetlari orqali ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomaga tuzadi va huquqbuzarga ushbu bayonnomaning elektron shaklini yoki qog'oz shaklini taqdim qiladi, vakolatli mansabdor shaxs tomonidan tuzilgan bayonnomada ko'rsatilgan huquqbazarlik o'zi tomonidan sodir etilganligiga e'tiroz bildirmagan huquqbazar bayonnomani planshetdagi maxsus barmoq izlarini skanerlovchi uskunasi orqali barmoq izlarini tushirish yo'li bilan tasdiqlaydi. Huquqbazar o'zining jismoniy nuqsoni tufayli bayonnomani o'qib, imzolay olmasa, bayonnomani dasturiy ta'minot o'qib eshittiradi. Bu haqda bayonnomaga belgi qo'yiladi. Bayonnomani tuzuvchi mansabdor shaxs huquqbuzarning yuz tuzilishini rasmga olib yoki planshetga barmoq izlarini tushirish orqali, elektron tizim planshetlari orqali real vaqt rejimida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bazasidan uning shaxsini aniqlaydi. O'rnatilgan videokuzatuv moslamalari orqali aniqlangan huquqbazar hamda qidiruvdagi shaxslar va ularning joylashgan joyi haqidagi ma'lumot hududdagi vakolatli mansabdor shaxslarga yuboriladi.

Huquqbuzarga tayinlangan jarimani elektron to'lov tizimlari orqali joyida to'lash imkoniyati yaratiladi. Huquqbazar bayonnomada ko'rsatilgan jarima summasini ixtiyoriy tarzda to'laganligi haqidagi ma'lumot elektron bazaga bayonnomaga topshirilgan sanadan boshlab o'n besh sutka ichida kelib tushmagan taqdirda, elektron bazaga kiritilgan bayonnomaga avtomatik tarzda tegishli vakolatli organlar yoki sudga jo'natiladi. Tegishli vakolatli organlar yoki sud elektron tarzda kelib tushgan ma'muriy

huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni umumiy asoslarga ko‘ra ko‘rib chiqadi.

Qonun loliyasiga asosan quydagilar belgilab qo”yildi:

a) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi loyihaning amalga oshirilishi va yuritilishiga mas’ul bo‘lgan vakolatli organ hisoblanadi;

b) “Elektron ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish” yuritish uchun zarur bo‘lgan texnik uskunalar, server planshet va boshqa moddiy texnika ashyolari va dasturlari “Xavfsiz shahar” loyihasini amalga oshirish doirasida sotib olinadi, idoralararo komissiya tomonidan tegishli axborot tizimlari va resurslarining integratsiya qilinishi ta’minlanadi.

Soddalashtirilgan tartibda yuritilgan ishlar yuzasidan jarimalar Toshkent shahrida “Xavfsiz shahar” integratsiyalangan tizimni yaratish bo‘yicha investitsion loyihasi shartlari doirasida taqsimlanadi.Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda “Elektron ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish” loyihasi xavfsiz shahar loyihalari doirasida amalga oshiriladi.

Belgilanishicha, 2019 yil 1 dekabrdan shaxs o‘ziga nisbatan vakolatli mansabdor shaxs tomonidan tuzilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomada ko‘rsatilgan huquqbuzarlik sodir etganligini rad qilmasa, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Mazkur tartibga ko‘ra ish ma’muriy huquqbuzarlikka oid bayonnomaga rasmiylashtirish vakolatiga ega mansabdor shaxs tomonidan qaror chiqarish orqali ko‘riladi. Vakolatli mansabdor shaxs tomonidan tuzilgan bayonnomaga asosan huquqbuzarga O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining tegishli moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam miqdordagi jarimaning 85 foizi miqdorida jazo tayinlanadi.Ma’muriy jarima huquqbuzar tomonidan unga bayonnomaga topshirilgan sanadan boshlab o‘n besh sutka muddatda ixtiyoriy ravishda to‘lanmagan taqdirda, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni yuritish umumiy tartibda davom ettiriladi.

Quyidagi ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha soddalashtirilgan tartibda ish yuritish qo‘llanilmaydi:

- ma’muriy huquqbuzarlikka oid ish soddalashtirilgan tartibda yuritilishiga huquqbuzar yoki jabrlanuvchining e’tirozi bo‘lgan ishlar;
- sodir etilgan huquqbuzarlik uchun jarima jazosidan boshqa turdagи ma’muriy jazo qo‘llanilishi nazarda tutilgan ishlar;
- chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 29¹-moddasida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlikka oid ishlar;
- ish bo‘yicha o‘zgaga moddiy yoki ma’naviy zarar yetkazilgan bo‘lib, zarar ko‘rgan taraf yoki uning vakili zararni undirishni talab qilgan ishlar;

➤ ma'muriy huquqbazarlik bir necha shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lib, ularning loaqal bittasi huquqbazarlik sodir etganini rad etgan ishlar;

Bir yil davomida takroran sodir etilishi oqibatida jinoiy javobgarlik kelib chiqishi nazarda tutilgan huquqbazarliklar bo'yicha soddalashtirilgan tartibda yuritilayotgan ma'muriy huquqbazarlikka oid ish bo'yicha shaxsning muqaddam ma'muriy huquqbazarlikka oid javobgarlikka tortilganligi haqidagi ma'lumotni darhol olishning imkonи bo'lmasa, ish yuritish shu ma'lumotni olingunga qadar umumiyl tartibda davom ettiriladi. Soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilgan ish yuzasidan chiqarilgan qaror, ishni umumiyl tartibda ko'rish natijalari bo'yicha chiqarilgan qaror bilan teng huquqiy kuchga ega bo'ladi. Soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilgan ish yuzasidan chiqarilgan qaror taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslaydigan holatlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida faktik ma'lumot hisoblanadi.

Ichki Ishlar Organlarti Huquqbazarliklar Profilaktikasi faoliyatida profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy huquqbazarliklarni ko'rish jarayonida kamchilik va xatolarga yo'l qo'ymaslik va huquqbazarliklarni qonuniy va adolatli hal etish hamda xalqimizni rozi qilish kabi vazifani bajarish har bir xodimni o'z burchiga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" . ; T 2023
2. "Huquqbazarliklar Profilaktikasi to'g'risida"gi 2014-yil 14-maydagи O'RQ 371-sonli qonuni.
3. "Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagи 431-sonli qarori.
4. Advice.uz ijtimoiy huquqiy sayti (<https://advice.uz>).
5. Lex.uz ijtimoiy huquqiy sayti (<https://lex.uz>).
6. "Google" jahon ijtimoiy internet tarmog'i (<https://google.>).